



FARG'ONA VILOYATI QO'QON SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 йил «14» май

138-11-166-Q/22

Қўқон шаҳар ҳокимлиги

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-sonli hamda Farg'ona viloyat hokimining 2022 yil 28 fevraldagi 95-11-0-Q/22-son qarori to'g'risida

Mamlakatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, bu orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab- quvvatlash, shuningdek, mazkur sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishni tashqil etish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-sonli va Farg'ona viloyati hoqimining 2022 yil 28 fevraldagi 95-11-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6,25 moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-120-sonli va Farg'ona viloyati hoqimining 2022 yil 28 fevraldagi 95-11-0-Q/22-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining “Veterinariya fidoyisi” va “Chorvachilik fidokori” ko'krak nishonlarini ta'sis etish

to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda chorvachilik va uning tarmoqlarini rivojlantirish maqsadlari uchun 2022 yilda Jahon bankining 300 million AQSH dollari miqdoridagi kredit mablag'larini jalb etish choralarini ko'rish vazifasi yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Qo'qon shahrida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dastur (keyingi o'rinlarda - Dastur) 1- ilovaga muvofiq;

shaharda chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturda belgilangan vazifalarni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Dastur tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, xar yili shahar hoqimligi tomonidan tasdiqlanadigan "Yo'l xaritasi" orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

4. Quyidagilar Dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

aholini chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda chorvachilik va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu sohada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

chorvachilik sohasida sifat nazoratini kuchaytirish, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, qo'shilgan qiymat zanjiriga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay tadbirkorlik muhitini rivojlantirish;

tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni tizimli Yo'lga qo'yish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi choralarni ko'rish ;

chorvachilik sohasida infratuzilma xizmatlarini yanada rivojlantirish, ularning sifatini yaxshilash va turlarini kengaytirish, ushbu sohaga zamonaviy bozor tamoyillarini keng joriy etish;

chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'ini modernizatsiya qilish, sohani diversifikatsiya qilish va qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya hamda xorijiy kapital oqimini ko'paytirish, shuningdek, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;

chorvachilik xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo'shilgan qiymatni yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish samaradorligini oshirish;

chorvachilik va uning tarmoqlarida ilmiy-tadqiqot, ta'lim va maslaxat xizmatlarini kengaytirish bilan integratsiyalashgan bilim va ma'lumotlarni tarqatishning samarador shakllarini joriy etish hisobidan ilm-fan, ta'lim, axborot va maslaxat xizmatlari tizimini takomillashtirish, ushbu sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish;

chorva mollari mahsuldorligini oshirish va ajratilgan maydonlardan unumli foydalanishni ta'minlash maqsadida bir gektar sug'oriladigan va lalmi yer maydoni hisobidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar me'yorlarini ishlab chiqish.

5. Shahar "Muloqot TV" teleradiokompaniyasi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun- mohiyati hamda maqsad va vazifalari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Qo'qon shahar hokimi



M.Usmonov